

## 5+1 dasturi amalda

Institutimiz talabalarining kelajakda o'z yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali kadr bo'lib chiqishida ishlab chiqarish korxonalarining o'rni juda katta. Shu munosabat bilan "Elektr energetikasi (s/x)" ta'lim yo'nalishining 4-kurs talabalari "5+1" dasturi asosida "Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasida assistenti O. Qilichov bilan "Uzkabel" qo'shma korxonasida "Elektr ta'minot uskunalari ekspluatatsiyasi va ta'mirlash", "Elektr energiyasi uzatish va taqsimlash" fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazildi hamda korxonadagi laboratoriya uskunalari bilan tanishdilar.



Ushbu laboratoriyada talabalar barcha laboratoriya uskunalari bilan tanishib o'zlarini qiziqtirgan savollariga javoblar oldilar.

**"Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasida assistenti Alisher Davirov axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**